BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

ON INCREMENTALITY AND BOUNDARY/UNBOUNDARY VERBS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEKISTAN)

Tohru Seraku
Hankuk University of Foreign Languages, Professor
Mirsanov G`aybullo Qulmurodovich

Annotation: This article provides a comparative analysis of the aspectual properties of verbs in English and Uzbek, in particular, incrementality and the issues of bounded and unbounded aspectual semantics. The study analyzes the theoretical views of the Slavic and Germanic aspectological schools, and sheds light on the formation of aspectual meaning based on the compositional approach and the quantitative properties of the argument. Also, the semantic and grammatical properties of incremental verbs in English and Uzbek are explained through examples.

Keywords: aspectuality, incrementality, incremental theme, aspectual semantics, boundedness, unboundedness, compositional approach, argument, quantitativeness, verb semantics, English, Uzbek.

INKREMENTALLIK VA FE'LLARNING CHEGARALANGANLIK/CHEGARALANMAGANLIGI XUSUSIDA (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Tohru Seraku
Xankuk xorijiy tillar universiteti, professor

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich

Annotatsiya Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning aspektual xususiyatlari, xususan inkrementallik hamda chegaralangan va chegaralanmagan aspektual semantika masalalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda slavyan va german aspektologik maktablarining nazariy qarashlari tahlil qilinib, kompozitsion yondashuv hamda argumentning kvantitativ xususiyatlari asosida aspektual ma'no hosil bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi inkremental fe'llarning semantik va grammatik xususiyatlari misollar orqali izohlanadi.

Kalit so'zlar: aspektuallik, inkrementallik, incremental theme, aspektual semantika, chegaralanganlik, chegaralanmaganlik, kompozitsion yondashuv, argument, kvantitativlik, fe'l semantikasi, ingliz tili, o'zbek tili.

Aspektuallik masalalari tahlili asosan ikki - slavyan va german tilshunoslik yo'nalishlariga asoslanib olib borilmoqda. Ammo hozirgacha mazkur ikki yo'nalish tadqiqotlarini qiyosiy tahlil qilish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, slavyan aspektologik tadqiqotlari Yu.S. Maslov, A.V. Bondarko va boshqalarning nazariyalariga asoslansa, german, jumladan ingliz va boshqa german tillarida M. Krifka, D. Dowty, Verkuyl hamda Vendler nazariyalariga asoslangan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Keyingi yillarda rus va ingliz aspektologiyasini uyg'unlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ham olib borilib, E.V. Paducheva va Tatevosov tomonidan bu borada muhim ilmiy natijalarga erishilgan.

Kompozitsion yondashuv tarafdorlari aspektual kompozitsiyani Manfred Krifkaning mereologik yondashuv nazariyasi asosida tahlil qilib, ichki argumentning kvantitativ xususiyatiga

e'tibor qaratadilar. Mazkur hodisa Incremental Theme termini bilan ham yuritiladi. E.V. Paducheva esa ushbu hodisani "Nakopitel effekta" (natija samarasi) atamasi orqali izohlaydi.
Aspektuallik, avvalo, fe'l harakatining vaqt davomida qanday kechishi bilan bog'liq semantik belgilarni o'z ichiga oladi. Slavyan tillarida aspektual tahlil fe'lning aktsional semantikasi - ya'ni chegaralangan yoki chegaralanmaganligiga asoslanadi. Kompozitsion yondashuvda esa harakatning chegaralanganligi butun predikat va argumentning kvantitativ xususiyati bilan belgilanadi. Argumentni tashkil qiluvchi substant fe'l harakati natijasida tabiiy ravishda tugallanish xususiyatiga ega bo'lsa, inkrementallik yuzaga keladi. E.V. Paduchevaning ta'kidlashicha, aynan shu jihat ingliz va rus tillaridagi inkremental fe'llarning umumiy xususiyatidir.

Inkremental fe'llarning asosiy ustunligi shundaki, aspektual semantika argumentning ichki tugallanish xususiyatiga qarab aniqlanadi. Bu holatda hodisaning vaqt davomida rivojlanishi hamda denotativ argumentning bosqichma-bosqich o'zgarishi nazarda tutiladi.

Masalan: Plough the earth - chegaralanmagan aspektual semantika.
Plough the tree - chegaralangan aspektual semantika.
Clean the room – chegaralangan aspektual semantika.
Clean the floor – chegaralanmagan aspektual semantika.
Xonani tozalamoq – chegaralangan aspektual semantika.
Polni tozalamoq – chegaralanmagan aspektual semantika.
Maydonni tozalamoq – chegaralanmagan aspektual semantika.
Fe'llarning dinamik semantikasi quyidagi konseptual xususiyatlar orqali aniqlanadi:
1. Subyektga yo'naltirilganlik (faollik va boshqaruv).
2. Obyektga yo'naltirilganlik (obyektga ta'sir va natijaga erishish).
3. Aspektual-temporal belgilar (vaqt, fazalar, takroriylik).
4.Davomiylik.
Stativ fe'llarning konseptual xususiyatlari esa quyidagilarni o'z ichiga oladi
subyektning jismoniy holati (to sit around the table);
holat almashinuvi (to stand up);
faktativ holat (to know the answer);
psixologik-emotsional holat (to be angry).

Ingliz va o'zbek tillarida bir xil mazmun turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida holat o'zgarishi up ravishi bilan ifodalansa, o'zbek tilida o'rnidan lokativ birikmasi orqali ifodalanadi.

Protsessual fe'llar odatda subyektning faolligi bilan tavsiflanadi va ko'pincha o'timsiz fe'llar guruhiga kiradi. Stativ fe'llarda esa subyektning faol ta'siri kuzatilmaydi. Munosabat (relyativ) fe'llari esa subyektning faol emasligi hamda obyektning stativligi bilan xarakterlanadi.

Aspektual ko'rsatkichlar nafaqat semantik, balki diskursiv vazifani ham bajaradi. Ular nutqda voqea-hodisalarning vaqt bo'yicha rivojlanishini va matnning mantiqiy yaxlitligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bondarko A.V. Teoriya funktsionalnoy grammatiki. Vvedeniye. Aspektualnost. Vremennaya lokalizovannost. Taksis.
2. Maslov Yu.S. Ocherki po aspektologii.
3.
3. Krifka M. Thematic Relations as Links between Nominal Reference and Temporal Constitution.
4. Dowty D. Word Meaning and Montague Grammar.
5. Verkuyl H.J. A Theory of Aspectuality.
6. Vendler Z. Linguistics in Philosophy.

7. Paducheva E.V. Semanticheskie issledovaniya.
8. Tatevosov S.G. Aktsionalnost v leksike i grammatike.
9. Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems.
10. Smith C.S. The Parameter of Aspect.